

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI TARIX FANLARI
BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.02/09.07.2020. Tar.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI**

BEKENOVA ALIYA ABSATTAROVNA

**O‘ZBEKISTON MUZEYLARI: MILLATLARARO DO‘STLIK VA
DINIY BAG‘RIKENGLIK TAMOYILLARI KESIMIDA
(Toshkent shahri muzeylari misolida)**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik: tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta‘mirlash va saqlash
(tarix)**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Bekenova Aliya Absattarovna

О‘zbekiston muzeylari: Millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari kesimida (Toshkent shahri muzeylari misolida).....3

Бекенова Алия Абсаттаровна

«Музеи Узбекистана: принципы межнациональной дружбы и религиозной терпимости (на примере музеев города Ташкента).....23

Bekenova Aliya Absattarovna

"Museums of Uzbekistan: principles of international friendship and religious tolerance (On the example of museums in Tashkent).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI TARIX FANLARI
BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.02/09.07.2020. Tar.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI**

BEKENOVA ALIYA ABSATTAROVNA

**O‘ZBEKISTON MUZEYLARI: MILLATLARARO DO‘STLIK VA
DINIY BAG‘RIKENGLIK TAMOYILLARI KESIMIDA
(Toshkent shahri muzeylari misolida)**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik: tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta’mirash va saqlash
(tarix)**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1516 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://ik-tarix.nuu.uz>) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailova Jannat Xamidovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna
tarix fanlari doktori, professor

Xasanov Baxtiyor Vahopovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.02/09.07.2020.Tag. 70.03 raqamli ilmiy kengash asosida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «12» may soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy. O'zbekiston tarixi davlat muzeyining kichik majlislar zali. Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-10-83, e-mail: info-historymuseum@akademy.uz O'zbekiston tarixi davlat muzeyi).


Dissertatsiya bilan O'zbekiston tarixi davlat muzeyining kutubxonasida tanishish mumkin (196P raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «5» may kuni tarqatildi.
(2025-yil «5» may dagi 17 - raqamli rest bayonnomasi)




R. E. Xoliqova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, v.v.b., t.f.d., professor


T. X. Norqobilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash Ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim


B.V. Xasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d. professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda muzeylar millatlararo va diniy o‘zaro aloqalarga oid artefaktlar asosida, jamiyatda bag‘rikenglikni oshiradi, madaniyatlar va dinlar o‘rtasidagi uyg‘unligini anglashda, balki ijtimoiy to‘qnashuvlarni kamaytirishda muxim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda millat va elatlarning madaniy va tarixiy merosi, hozirgi zamon sivilizatsiyasi uchun ahamiyatini muzeylar faoliyati misolida o‘rganish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Dunyoda muzeylarning millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillarini targ‘ib etishini har tomonlama o‘rganish ustivor ilmiy yo‘nalishlardan biri sanaladi. Fransiya, Germaniya, Italiya AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlar muzeylari faoliyatidagi ishlab chiqilayotgan loyihalarning asosiy mavzusi zamonaviy ko‘p madaniyatli jamiyatda bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy va madaniy moslashuvi muammolari, etnik va madaniyatlararo bag‘rikenglikni targ‘ib qilish kabi masalalar olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar xarakterini belgilamoqda.

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasida «Xavfsiz va tinchliksevar davlat tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish» deb nomlangan V ustivor yo‘nalishida jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish uchun muhim vazifalar belgilab berildi¹. Yurtimizning millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillarini to‘laqonli qo‘llab-quvvatlashidan kelib chiqib, muzeylardagi turli diniy va xalqlar etnografiyasiga oid buyumlar soni, kolleksiyalarga ajratilishini tasniflash, muzey ekspozitsiyalari va ashyolari orqali millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyalarining talqin qilinishini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston muzeylarining fondlarida jahon xalqlari madaniyatiga oid buyumlar va osori atiqalarning muzey fondlariga kelib tushish tarixi, kolleksion tasniflarini tahlil qilish fondlarning ish yuritish borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son «Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781son «O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustivor yo‘nalishiga muvofiqdir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli ««O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston muzeylari: millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari kesimida mavzusi ilk bor tadqiq etilayotganligi sababli, muzeydagi kolleksiyalarning shakllanishi tarixi va ekspozitsion mohiyatini aks ettirishi, ashyolarning turlari va tavsiflariga hamda muzeylashtirishga oid adabiyotlar sifatida mavzu yuzasidan o‘rganilgan adabiyotlar uch guruhga bo‘lib tadqiq etildi.

Birinchi guruhga sovet davrida ijtimoiy sohadagi davr mafkurasi shartlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Ularning aksariyati umumiy xususiyatga ega bo‘lib, ilmiy xulosalar chiqarishda sovet davrining siyosiy mafkuraviy negiziga va manfaatlariga bevosita bog‘liqligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda muzeylarda faoliyat yuritgan olimlarning adabiyotlarida², dunyo xalqlari etnografiyasiga oid kolleksiyalarning shakllanishi tarixiga oid ilk asosiy ma‘lumotlar qayd etilgan. Lekin ularda aynan muzeylardagi millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillarini yoritishga qaratilgan ekspozitsiyalar to‘g‘risida ma‘lumotlar berilmagan. Shuningdek, O‘zbekistonda muzey ishi tarixi yo‘nalishidagi N.S. Sodiqova³ tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda siyosiy-g‘oyalarni targ‘ib qilishda muzeylarning o‘rni masalasiga e‘tibor qaratilgan. Muzeylarning bu davrdagi xalqlar do‘stligi sohasidagi faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni davriy nashrlardan⁴ va bu davrda nashr qilingan ilmiy maqolalarda⁵ bu davrda tashkil qilingan xalqaro ko‘rgazmalar orqali aks ettirilgan.

Ikkinchi guruh mustaqillik davri muzeyshunos olimlarning adabiyotlari va monografiyalarida⁶ mustaqillik yillaridagi madaniy o‘zgarishlar jarayonlarida

² Миронов А.М. Художественный музей в Ташкенте.-Т.: Музей УзССР, 1929.-С.4.; Сухарева О.А. Ферганская этнографическая экспедиция. – СЭ, 1954, №3.; Ю.И. Гласс, Л.М.Ланда. Музеи Узбекистана.- Т.: Узбекистан. 1961. – С. 76; Содикова Н.С., Буряков Ю.Ф. Тарихий ёдгорликлари хазиnasi. – Т.: Фан. 1963. – 72; Садыкова Н.С. Этнографическая коллекции Музея истории народов Узбекистана (история комплектования и краткое описание) /Материалы по истории Узбекистана. –Ташкент: Фан, 1966. С.62-71; Садыкова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975.-290 с; Шу муаллиф. Маданий меросимиз хазиnasi. –Тошкент: Фан, 1981.-270б.; Шу муаллиф. Единство научно-исследовательской и идейно-воспитательной работы музеев Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1987.; Шу муаллиф. Историография и источники по музейному строительству. Ташкент: Фан, 1987.; Луний Б. Материалы к историографии истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана конца XVIII – начала XX вв. // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана: Сб. тр. - М., 1975.- С. 22-41; Е.М. Никифорова. Государственный музей искусств узбекской ССР. Живопись// Авт. вст. Статьи -Л.: 1975.-247с.; Круковская С.М. В мире сокровищ.- Ташкент: 1982. -231сТехнология фарфорового и фаянсового производства, М., 1975; Садыкова Н.С., Ю. Гласс, Е. Цой. Музеи Узбекистана (путеводитель-справочник) – Т.: Фан. 1978. – С. 36-38;

³ Садыкова Н.С. История становления и развития музейного дела в Советском Узбекистане (1917-1973 гг.) Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Т., 1975. – С. 397;

⁴ Садыкова Н. Музейга экскурсиялар. // Совет Ўзбекистони, 1954, 30 октябрь; Турсунов М. Ўзбекистон ССР Олий Советининг VII сессияси «Маданият ёдгорликларини сақлаш тўғрисида»ги Ўзбекистон ССР Қонунининг қандай бажарилаётгани ҳақида // Ёш ленинчи, 1970, 24 июнь.; Беш кардош республика рассомлари асарларининг виставкаси. Совет Ўзбекистони, 1964. 3 апрель; Панжоб маданияти ва турмушига оид буюмлар виставкаси. // Совет Ўзбекистони, 1964. 31 январь; Садыкова Н. Маданиятлар ойнаси // Совет Ўзбекистони. 1980 йил 18 май; O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. 1986-yil. 8-avgust. No:32(2876) 4-bet.

⁵ Абдуллаев М. Национальные традиции и интернациональная направленность в эстетической культуре // Строительство и архитектура Узбекистана. 1989. №8. – С. 15; Транис И.Л. Музеи-активные помощники партии в идейно-политическом воспитании масс.// Опыт идеологической работы музея по коммунистическому воспитанию трудящихся.Т.: «Фан». 1987.3-9-б.

⁶ Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т.: Г. Гулям, 2007. – 268 с.; Левтеева Л.Г. Новые экспозиции музея // Правда Востока. – Т., 1987. 27 июня. Ревес Левтеева Л.Г. Сохраня культурное наследие или мечты, ставшие реальностью. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2019. – С.341. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л.Г. Музей Узбекистан. – Т.: Oshun, 2020. – 277 б.; Исмаилова Ж.Х. Левтеева Л.Г. Ўз ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейи (йўлқўрсаткич) – Т., 2013. – 127 б. Курязова Д.Т. Музей ishi tarixi va nazariyasi. – Т.:

muzeylar faoliyatiga oid ko‘plab ma‘lumotlar mavjudligi bilan ajralib turadi. J. Ismailova, A. Reves⁷ hammuallifligidagi tadqiqotda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasi misolida O‘zbekiston hududida shakllangan diniy qarashlarga oid ma‘lumotlar muzey ashyolari ko‘rgazmaviy tahlili asosida yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi to‘plami⁸da qo‘shni mamlakat xalqlari madaniyatini oid kolleksiyalar bo‘yicha ma‘lumotlar taqdim etilgan. Mustaqillik yillarida muzeyshunoslik sohasidagi olib borilgan tadqiqotlarning⁹ mavzulari O‘zbekiston muzeylari va ularni rivojlantirish istiqbollari, moddiy madaniy merosini o‘rganish, ashyolarning saqlanishi, fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari, muzeylarni virtualashtirishda jahon tajribasini qo‘llash, muzeylashtirilgan obyektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari, tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish, etnomadaniy merosni saqlash, viloyat va uy muzeylari tarixini o‘rganish kabi

O‘qituvchi, 2007. – 160 b.; Fuzailova G., Xasanova M. Muzevedenie. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008. – 192 s.; Ismailova J.H., Muxamedova M.S. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Munis design group, 2013. – 310 b.; Ismailova J.H., Nishanova K.C., Muxamedova M.S.. Muzey va jamiyat. Oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik. – T.: Chinor ENK. 2015. – 174 b.; Ismailova J.H. Bag‘rikeng o‘zbek xalqi ikkinchi jahon urushi yillarida. -Ikkinchi jahon urushi va O‘zbekiston xalqi: tadqiqotlar kitobining 2-jildi. -T. 2021. -182b; A.A. Madraimov, & M.M. Safayev. (2022). История и развитие этнографического фонда государственного исторического музея Узбекистана. Восточный журнал социальных наук, 2(06), 127–130. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-02-06-019>.

⁷ Исмаилова Ж. Х. Ревес А.М. «Ўзбекистон – бағрикенг диёр». –Т-2008., -476.

⁸ «Ўзбекистон маданият мероси жаҳон тупламларида» муаллифлик туркуми: «Ўзбекистон тарихи давлат музейи тўплами. Иккинчи қисм. Этнографик фонд» китоб-альбоми/ Ф.Ф. Абдухолиқов, Э.В. Ртвеладзе, Ж.Х. Исмаилова, Л.Г. Левтеева // Тошкент: «East Star Media» МЧЖ, «Darakchi inform servis» МЧЖ буюртмасига кўра, 2020. - 16 б.

⁹ Алмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991-2000 гг.) Автореферат дис... д-ра. ист. наук – Ташкент, 2012. С. 50; Курязова Д.Т. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фан. ном. дис. автореферати – Т., 2009. – 30 б.; Ўша муаллиф. Ўзбекистон моддий маданият меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Докторлик диссертацияси (DSc). – Т., 2021 – 253 б.; Курбонова Д. Хориж музейларида сақланаётган темурийлар даврига оид тарих ва маданият ёдгорликлар Тарих фан. ном. дис. автореферати – Т., 2009. – 30 б.; Ўша муаллиф. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни компектлаш тамойиллари. Докторлик диссертацияси (DSc). – Т., 2020. – 230 б.; Ismailov A.F. O‘zbekistonning intellektual rivoji tarixi va fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi misolida). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. 70 b.; Xushvaqov N.O. Kesh tarixi va madaniyati («Shahrisabz» davlat muzey-qo‘riqxonasi materiallari asosida). Tarix fanlari doktori (DSc). diss. avtoreferat. - Qarshi, 2023. -73 b.; Muxamedova M. Ўзбекистон тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истикболлари (XX асрнинг II ярми-XX аср бошлари) Тарих фан. ном. дис – Т., 2020 – 140 б.; Миралиева Ш. Виртуал музейлар яратишнинг жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истикболлари. Тарих фан. ном. дис. – Т., 2019. – 151 б.; Аҳмедов Ж. Фарғона водийсидаги тарихий-маданият ёдгорликларни музейлаштириш (XIX-XXI асрлар). Тарих фан. ном. дис – Т., 2020 – 130 б.; Орифжонова Г. XIX-XX аср бошларига оид Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишнинг тарихий-маданият жиҳатлари. Тарих фан. ном. дис – Т., 2020 – 167 б.; Файзиёва В. Ўзбекистон давлат санъат музейи: тарихи, ривож ва истикболи (XX-XXI асрлар) Тарих фан. ном. дис – Т., 2021. – 141 б.; Yunusov M. Samarqandda muzey ishi: shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va muzeylashtirish tamoyillari. (XIX asrning oxiri –XXI asr boshi). Tarix fan nom. Dis – Т., 2023. 150b.; Boymirzayev S. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining arxeolgiya fondining shakllanishi va rivojlanishi. Tarix fan nom. Dis – Т., 2023. 156 b.; Axmedjanov N. O‘zbekistonda XX asr o‘rtalari va XXI asr boshlarida madaniy meros obyektlari va muzeylar tarixi (Jizzax viloyati misolida). Tarix fan nom. Dis – Т., 2023. 170 b; Finkelshteyn I.SH. O‘zbekiston sayyohlik sanoatini rivojlantirish uchun memorial muzeylarning innovatsion salohiyati. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. 44 b.; Elmuratova Sh.A. O‘zbekiston uy-muzeylarining tarixiy rivojlanishi va madaniy hayotda tutgan o‘rni (Toshkent viloyati va Toshkent shahri misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2023. -45 b.; Babojonov D.K. «Ichan qal‘a» davlat muzey-qo‘riqxonasi tarixi (1920-2020 yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Urganch, 2024. 48 b. Nazarova D. E. Toshkent shahri muzeylari: shakllanishi, rivoji va muzeylashtirish tamoyillari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2024. -52 b.

masalalarga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Ulardan G. Orifjonova¹⁰ning «XIX-XX asr boshlariga oid O‘zbekiston etnomadaniy merosini saqlash, tadqiq etish va namoyish etishning tarixiy-madaniy jihatlarini» mavzusidagi dissertatsiyasida O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlarning turmush tarzi va madaniyatini namoyish etishga qisman to‘xtalib o‘tilgan. J. Ismailova, L. Levteyeva, M. Muxamedova S. Davlatovaning maqolalarida¹¹ O‘zbekistonda muzey ashyolari orqali millatlararo hamda madaniyatlararo bag‘rikenglik sohasini muzeylashtirish masalalari yoritib berilgan.

Uchinchi guruh xorijiy olimlarning tadqiqotlaridan tajriba almashish va solishtirish uchun foydalanildi. Ularning nashrlarida¹² dunyodagi global muammolarning yechimi sifatida millatlararo do‘stlikni targ‘ib qilishga qaratilgan tarix muzeylarining vazifalari tahlil qilingan. T.M.Troshinaning «Zamonaviy interaktiv muzey bag‘rikenglik maydoni sifatida»¹³ nomli risolasi mavzuga oid asosiy adabiyotlaridan hisoblanadi. Ushbu risolada muzey ekspozitsiyasida zamonaviy interaktiv texnologiyalarini yaratish, ekspozitsion maydonining g‘oyasini to‘g‘ri shakllantirishda ahamiyat berilishi zarur bo‘lgan holatlar jahon muzeyshunos olimlarining fikrlari bilan asoslab berilgan. Unda ekspozitsiya tuzishda madaniy makon va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Shuningdek, Italiyalik muzeyshunos Valeria Minucciani¹⁴, fransuz olimi M. O‘Neill¹⁵, germaniyalik madaniyatshunos olim N. Garcia Canclini¹⁶ning zamonaviy muzeyshunoslik va din muzeyshunosligiga hamda madaniyatlararo hamjihatlikka oid maqolalarida muzeyshunoslikning bugungi kundagi dolzarb muammolarini yoritish

¹⁰ Орифджонова Г. XIX-XX asr boshlariga oid Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишининг тарихий-маданий жиҳатлари. Тарих фан. ном. дис – Т., 2020 – 167 б.

¹¹ J. X. Ismailova. Bag‘rikeng va insonparvar xalq// O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mustaqil O‘zbekistonni barpo etishdagi tarixiy roli. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2017. – B. 63-67; L. Levteeva. Укрепляются связи. // Правда Востока. 2013. 2-сон.; Мухамедова М.С. Музей киноискусства Узбекистана: как источник дружбы между народами. // Искусство диалог культур. Сборник материалов IX международного научно-практической конференции. Грозный, 2023. – С. 377-380. Davlatova S. Tarixiy madaniy merosni muzeylashtirish: nazariy jihatlari va tadqiq etishning uslublari.// «Muzeylar: an‘ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida» nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami.–T. 2024. 20-28b. O‘sha muallif. Ziyorat turizmi – Yangi O‘zbekistonda madaniyatlararo almashinuv va bag‘rikenglikni mustahkamlash sohasi sifatida. // «Muzeyshunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, an‘analari va innovatsiya» mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. –T. 2024. 90-98-b.

¹² Байер де Хаан. Постнациональное, транснациональное, глобальное? настоящем и перспективах исторических музеев // Музей как сообщество в условиях глобализации. М.: ИМ, 2002. .с 20; Чижикова, О В Деятельность советских обществ дружбы и культурной связи со странами Азии в Приангарье в 1960-1980-е гг. (опыт сравнительного анализа) / О.В. Чижикова // Вестник Поморского университета. 2007. № 9. - С. 39-42; Царьков П.Е. Теория и методология прогнозирования религиозного туризма в буддистских регионах России. https://www.tuva.asia/journal/issue_28/8362-carkov.html; Токарев С.А. История зарубежной этнографии. – Москва, 1978. –С.87. Павличенко З.Ю., Давыденко М.В. Паломничество и религиозный туризм в Центральной Азии... как форма междивилизационных контактов // Известия АлтГУ. Исторические науки и археология. – 2018. №2 (100)– С.139.

¹³ Трошина Т.М. Современный интерактивный музей как пространство толерантности. Екатеринбург. -2008. С.75.

¹⁴ Minucciani V. Musei fra immanenza e trascendenza: esposizioni e raccolte di arte sacra e beni culturali religiosi in Piemonte e Valle d’Aosta, Lybra Immagine, Milan 2005. «Musées et religion(s)», in Musées & Collections Publiques de France, no. 219, Association Générale des Conservateurs des Collections Publiques de France, Paris 1998.

¹⁵ O’Neill M. «Religion and cultural policy: two museum case studies», in International Journal of Cultural Policy, 17, 2, 2011, p. 225-243.

¹⁶ García Canclini N. Diferentes, desiguales y desconectados. Mapas de la interculturalidad, Barcelona, Gedisa, 2006, p. 166.

va yechimlarini taqdim etishga qaratilgan xulosalari berilgan.

Mavzuni yoritishda diniy va etnografik eksponatlar tarixini yoritish va muzeyshunoslik yoʻnalishidagi adabiyotlardan fondlarni kolleksiyalarga ajratish hamda ekskursiya tashkil qilish jarayoniga bagʻishlangan adabiyotlar oʻrganildi. Jumladan, O.V.Bezzubova, O.S. Sapanja, L.M.Shlaxlina, A.V.Chugunova, K. Novaxatkolarning ilmiy ishlari asosan muzeyning targʻibot vazifalarini yoritishga qaratilgan¹⁷.

Yuqoridagi koʻrsatib oʻtilgan adabiyotlarda tadqiqot mavzusini yoritishda foydalanildi. Biroq, Oʻzbekiston muzeylari misolida millatlararo doʻstlik va diniy bagʻrikenglik tamoyillari kesimida mavzusiga bevosita aloqador boʻlgan ixtisoslashtirilgan va umumlashtiruvchi ishlarning mavjud emasligi, muzeylarda mavjud ekspozitsiyalarining toʻliq mohiyatini ochib bermasligi, amalga oshirilayotgan gʻoyaviy-tarbiyaviy ishlarning amaliy ifodasini tasavvur qilish imkonini bermaydi. Shu maqsadda Oʻzbekiston muzeylari misolida millatlararo doʻstlik va diniy bagʻrikenglik tamoyillari kesimida oʻrganish imkonini yaratuvchi materiallar toʻplandi va tasniflandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyining «Oʻzbekistonning moddiy- madaniy merosi: saqlash, ilmiy tadqiq etish, taʼmirlash va targʻibot tamoyillari» yoʻnalishi boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oʻzbekiston muzeylarining millatlararo doʻstlik va diniy bagʻrikenglik tamoyillarini Toshkent shahri muzeylari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Oʻzbekiston madaniy hayotida millatlararo doʻstlik rishtalarini shakllanishi va umuminsoniy etnomadaniy-bagʻrikenglik tamoyillarini oʻrganish;

Muzeylar faoliyatida shakllangan oʻzaro madaniy aloqalar tarmoqlari asosidagi tolerant hamkorlikdagi islohotlarga doir tadbirlar hamda koʻrgazmalarni qiyosiy tahlil etish;

turli millatlarning urf odatlari, turmush tarzi va etnografiyasiga oid kolleksiyalarining shakllanishi hamda rivojlanish asoslarini ilmiy tadqiq etish;

Maishiy etnik buyumlar badiiy xususiyatlarining assimilyatsiyasi, muzeylashtirilishi va ekspozitsiyada yoritilishini koʻrsatib berish;

Turli xalqaro tadbirlar, milliy etnik bayramlar boʻyicha ekspozitsion muhit integratsiyalashuvi va intepretatsiya jarayonlarini yoritib berish;

Millatlararo doʻstlik va bagʻrikenglik muzeyini tashkil etish zaruratiga doir taklif va mulohazalarni ilmiy konseptuallashtirish orqali amaliyotga tadbiriq etishdan iborat.

¹⁷ Беззубова О. В. Музей как инстанция художественного, научного и идеологического дискурсов. Автореферат канд. филос. наук. СПб., 2003; Сапанжа О. С. Методология теоретического музееведения. СПб., 2008; Шляхтина Л. М. Миссия современного музея в контексте актуальных проблем музеологии // Музеология, музеи в меняющемся мире: Сборник материалов международного симпозиума. Барнаул, 2008. С. 40-41.; Чугунова А. В. Социокультурный образ современного музея. С. 14.; Новохатько К. Музейные программы или музейный продукт // Музей. 2011. № 7. С. 55

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahridagi millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari aks etgan muzeylar belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini Toshkent shahridagi millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari aks etgan muzey ekspozitsiyalarining shakllanish tarixi, muzey kolleksiyalari, ekspozitsiyalardagi namoyishi, ma’rifiy ahamiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada izchillik, tarixiylik, qiyosiy tahlil, xronologik tizimli tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Dunyoda ijtimoiy adolat va xalqlar do‘stligi g‘oyalari targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan muzeylar sifatida 1946-1956-yillarda Xamza nomidagi Respublika tabiiy fanlar targ‘iboti muzeyi, 1976-1989-yillarda «Xalqlar do‘stligi» muzeyi, 1970-1989-yillarda Buyuk Britaniya Kompartiyasi tarixi muzeylari faoliyat olib borganligi, ularda ateistik ruhdagi ekspozitsiyalari bo‘lganligi, ommaviy-siyosiy targ‘ibot masalalariga qaratilganligi, siyosiy g‘oyalarning dinga qarshiligi aniq namoyish etilganligi tahlil qilingan;

O‘zbekiston muzeylarining turli millatlar ijtimoiy-madaniy hayotiga oid kolleksiyalari davriy jihatdan qadimgi davrdan to bugungi kunga oidligi, asosan 1924-1940-yillarda ilmiy etnografik ekspeditsiyalarda to‘planib shakllanganligi, kolleksiyalar tarkibi mato, gilam, kiyim-kechak, chinni, yog‘och, shisha, metall, suyak kabi 8 xildan ortiq materiallardan ishlanganligi, liboslar nomlanishida milliy atamalaridan (qoraqalpoq-jegde, dungan-mya-ngor, arman-armyachina, qirg‘iz-chachkep, qozoq-saukele) foydalanganligi ochib berilgan;

Toshkent shahridagi muzeylar ekspozitsiyalarida millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari xolisona yoritilganligi, ularning siyosiy mafkuradan holi ekanligi, har bir din yoki millat madaniyatiga oid buyumlar mavjudligi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining «Tosh davri» bo‘limida ilk diniy e‘tiqodlarning paydo bo‘lishi, «Ilk davlatchilik» va «Kushon davri» bo‘limlarida buddizm hamda zardushtiylik dinlarining marosim ashyolari, «Islom» va «Birinchi Renassans davri» bo‘limlarida islom diniga oid manbalari, O‘zbekiston davlat san’at muzeyida davlatlar madaniyati jihatidan aks etganligi, uy muzeylarida bu tamoyillarning yoritilishi asosan sovg‘alar uy-ro‘zg‘or anjomlari va milliy liboslar ko‘rinishida bo‘lganligi asoslangan;

«Millatlararo tinchlikni mustahkamlash» bilan turli millat va xalqlarning madaniyatlarini, urf-odatlarini va tarixini bir joyda namoyish qilish, «Bag‘rikenglikni targ‘ib qilish» bilan turli millatlarning bir-birini hurmat qilish va bag‘rikeng bo‘lishini, «Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish» bilan xalqaro hamkorlik va madaniy almashinuvni, «Maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim» bilan turli millatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tushunishga yordam beruvchi ilmiy va ta’limiy dasturlarni yaratish zarurati asosida «Millatlararo do‘stlik va bag‘rikenglik» muzeyining ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

tadqiqot natijalaridan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi fond kolleksiyalari asosida tashkil qilingan xalqaro va mahalliy ko‘rgazmalarni tashkil qilishda foydalanilgan;

Toshkent shahridagi muzeylardagi fond kolleksiyalarini shakllantirish, namoyish etish va turli interfaol muzey dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Oliy o'quv yurti talabalari va O'zbekiston tarixi davlat muzeyi ekskursovodlari uchun tarix va muzeyshunoslik fanlari doirasida ma'ruzalar tayyorlangan.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston muzeylaridagi turli millatlarga xos eksponatlarni katologlarini shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar bazasini kengaytirgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tarix fanidagi samarali yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, muzey va arxiv fondlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, tarixiy ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, ularning aksariyati birlamchi manbalarga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning tegishli vakolatga ega tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston muzeylaridagi fond kolleksiyalarini tarixiy-qiyosiy, muammoli xronologik usullar asosida, tizimli tahlil asosida yoritilgani sababli ulardan oliy o'quv yurtlarida tarix, muzeyshunoslik, etnografiya, madaniyatshunoslik fanlarining o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari va manbalar keysini hamda muzeylarda kolleksiyalar bo'yicha katologlarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyida millatlararo totuvlik hamda diniy bag'tikenglikka oid tashrifchilar bilan ishlashda zamonaviy interfaol dasturlarni ishlab chiqish, ekspozitsiyalarni shakllantirishda g'oyaviy jihatlariga oid faktlar bilan boyitish, muzeylar faoliyatiga oid davlat dasturlari amalga oshirish, Muzeyshunoslik fanidan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, Milliy madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish, muzeylarning xalqaro madaniy aloqalarini rivojlantirish, qo'shma xalqaro ilmiy loyihalarni ishlab chiqish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston muzeylari: Millatlararo do'stlik va diniy bag'rikenglik tamoyillari kesimida mavzusidagi tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy natijalar asosida: O'zbekiston muzeylarining turli millatlar ijtimoiy-madaniy hayotiga oid kolleksiyalarning tadrijiy shakllanishi davrlarga ajratilganligi, o'zbeklarning xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalari do'stligi jamiyatining ko'rgazmalari orqali (1950 yildan 1991-yilgacha), ularni rassomlarning kartinalari va amaliy san'at buyumlari muzey fondlariga doimiy saqlashga sovg'a qilingani, jahon muzeylari bilan kelishuv memorandumlari asosida va turli davlatlarning elchixonalari (1991- yildan to bugungi kungacha) tomonidan taqdim etilgan ashyolar hisobiga ko'payib borayotganligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston tarixi telekanalida efirga uzatilgan «Taqdimot» ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, «O'zbekiston» teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 3-oktabrdagi 06-28-857-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning joriy qilinishi O'zbekiston muzey fondlarining shakllanish tarixini o'rganishga, hamda muzeyshunos xodimlarning fond ishi hujjatlarini yuritish ma'lumotlar bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda;

Toshkent shahridagi muzeylar ekspozitsiyalari kompleks ravishda tarbiyaviy-g'oyaviy hamda mavzuli tarixiy-tadrijiy jihatdan tahlil qilinib, millatlararo do'stlik va

diniy bag'rikenglik tamoyillari xolisona yoritilganligi, ularning siyosiy mafkuradan holi ekanligi, har bir din yoki millat madaniyatiga oid materillardan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi hamda O'zbekiston davlat san'at muzeyi ekspozitsiyasini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 22-oktabrdagi 02-05/3973-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar O'zbekiston muzeylari ekspozitsiyalarini mazmunan boyitishga xizmat qilgan.

O'zbekistonda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, turistik jozibadorligini oshirish, yoshlar orasida bag'rikenglik va millatlararo totuvlik fazilatlarini shakllantirish uchun tashkil qilish zarur bo'lgan zamonaviy interfaol uslubdagi «Millatlararo do'stlik va bag'rikenglik» muzeyining ilmiy konsepsiyasi asosida muzeylarda ekskursiya dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 22-oktabrdagi 02-05/3973-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar O'zbekistonda muzeyshunoslik sohasining rivojiga va zamonaviy muzey konsepsiyalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

O'zbekistonda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, turistik jozibadorligini oshirish, yoshlar orasida bag'rikenglik va millatlararo totuvlik fazilatlarini shakllantirish hamda aholining ijtimoiy birligini ta'minlashga oid materiallardan O'zbekiston tarixi telekanalida efirga uzatilgan «Taqdimot» ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, «O'zbekiston» teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 3-oktabrdagi 06-28-857-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar muzeylarning millatlararo do'stlik va diniy bag'rikenglik bo'yicha bilim va fikrlarni kengaytirishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 7 ta ilmiy-amaliy yig'inlarda, jumladan 4 ta xalqaro, 3 ta mahalliy yig'inlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta maqola chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta maqola, 2 tasi milliy va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, o'rganilish darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning qaror topishida muzeylarning o'rni**» deb nomlangan birinchi bobi O'zbekiston madaniy hayotida millatlararo do'stlik rishtalarini shakllanishi hamda Mustaqillik yillarida muzeylarda millatlararo hamkorlikdagi islohotlar va tadbirlar rivojining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilingan.

Ma'lumki, yurtimiz muzeylarida qadimgi davr va ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo

xalqlari tarixida tolerantlikka oid ko‘plab ashyolar mavjudligiga oid ko‘plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, ko‘hna Termizda, Fayoztepa va Qoratepada Buddha ibodatxonalari, Dalvarzintepada Buddha ibodatxonasi va hayvonot olami ilohasi Nana ibodatxonasi (kushonlar davri) hamda qadimgi shahar tevaragida zardushtiylar maqbarasi – hovuz borligi aniqlangan. Zardushtiylarning otashgohlari, buddaviylik, xristian va yahudiylik ibodatxonalarining yonma-yon qurilishi man etilmagan. Boshqa e‘tiqodlar va o‘z ma‘budalariga sig‘inishgan kishilarga nisbatan dushmanlik kayfiyati hamda irqiy nafrat mavjud bo‘lmagan.

Rossiya imperiyasi davrida Turkistondagi muzeylar o‘lkaning moddiy va ma‘naviy, yer osti va ustki boyliklarini chuqur o‘rganib, Rossiya manfaati yo‘lida foydalanish uchun tashkil etilgan bo‘lsa, sovet davrida bu ishlar o‘zgacha tusga ega bo‘lgan¹⁸. Muzeyda ish yuritish metodi va shakllari birmuncha soddalashtirilgan. Ayniqsa, g‘oyaga mos kelmaydigan diniy yodgorliklar deyarli namoyish etilmagan ular muzey e‘tiboridan chetda qolgan.

O‘zbekistonda XX asr 50-yillari o‘rtalarida 30 mingta tarixiy yodgorlik bo‘lgan bo‘lsa, tarixiy boyliklarga loqaydlik bilan qarash natijasida 80-yillar oxiriga kelib, ulardan bor-yo‘g‘i 7 mingtasi qolgan xolos lekin shunga qaramay muzeylar faoliyatida millatlararo do‘stlik mavzusidagi ko‘rgazma va dasturlar ustunlik qilgan sababi sotsialistik tuzum g‘oyalarini xalqlar ongiga singdirishda ularning birdamligi muhim sanalgan.

Millatlararo do‘stlik va diniy bag‘rikenglik mazmunidagi muzey va ko‘rgazmalar tashkil etilishi kengayib bordi. Mazkur amalga oshirilgan ishlar mazmuni bilan quyidagi misollar orqali tanishib chiqishimiz mumkin.

1970-yili F. Engels nomidagi Toshkent davlat chet tillar instituti (Hozirgi jahon tillari universiteti) ingliz tili fakulteti tarkibida Buyuk Britaniya Kompartiyasi tarixi muzeyi Melenevskiy Djon (Ivan) Maryanovich xarakatlari bilan tashkil qilingan. Melenevskiy 2 yil davomida 3000ga yaqin nodir hujjatlar va XX asrdagi ingliz ishchilar xarakatiga oid eksponatlarni to‘playdi. 1970-yili 16-fevral kuni muzeyning birinchi ekspozitsiyasi ochiladi¹⁹ Muzeyning 125 ta mamlakatlar bilan 6 ta tildagi: ingliz, nemis, fransuz, ispan, portugal va italyan tillaridagi yozishmalari saqlangan. Muzey dunyoda ijtimoiy adolat va xalqlar do‘stligi g‘oyalarini targ‘ib qilgan. 1987 yil hisobotlariga ko‘ra muzeyda yil davomida 198 ta ekskursiya tashkil qilingan. Umumiy tashrifchilar soni 2.420 ta bo‘lib ulardan: 674 nafari talabalar, 478 nafari maktab o‘quvchilari, 134 nafari chet ellik mehmonlar va boshqalardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, dunyoning 24 davlatidan kelgan 16 ta xorijiy delegatsiyalar uchun ekskursiyalar uyushtirilgan²⁰. 1970-1987-yillarda muzeyga 22000 dan ortiq tashrifchilar kelgan. Xorijiy davlatlarning 64 dan ortiq milliy tashkilotlariga ekskursiyalar tashkil qilingan. Muzey faoliyatidagi asosiy masala yoshlar o‘rtasida millatlararo do‘stlik va birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik qaratilgan ko‘rgazmalar ham keyinchalik muzey fondlarini boyitganligi ham ahamiyatlidir. Jumladan 1964-yilda

¹⁸ Kuryazova D.T. O‘zbekiston moddiy madaniy merosini o‘rganish, saqlash va muzeylashtirishning nazariy – metodologik asoslari. Tarix fan. Nom.dissertatsiyasi.- Toshkent. 2021. B.92.

¹⁹ O‘MA. R-2823 fond, 1-ro‘yxat, 6- ish, 115-varaq

²⁰ O‘MA. R-2823 fond, 1-ro‘yxat, 6- ish, 115-varaq.

O‘zbekiston Davlat san’at muzeyida Qozog‘iston va O‘rta Osiyo respublikalari rassomlari asarlarining ko‘rgazmalarining tashkil qilingan, unda O‘zbekistondan Chingiz Axmarov, A. Abdullayevning, Qirg‘izistondan G. A. Aytiev, V. S. Tyurin, S. A. Chuykovlarning hamda boshqa mualliflarning umumiy 330 ta asar ko‘rgazmaga qo‘yilgan²¹. Shuningdek, Hindistondagi Panjob shtati madaniyati va turmushiga oid asarlarining katta ko‘rgazmasi ochilishida O‘zbeklarning xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalari do‘stligi jamiyatining xissasi, unda 300 ga yaqin eksponat bo‘lib, panjobliklarning mehnati va turmush tarzi aks ettirilgani bayon qilinganligini alohida ta’kidlashimiz mumkin²².

Bundan tashqari Toshkent shahrida 1976-yil 20-mayda tashkil etilgan «Xalqlar do‘stligi» muzeyida rus va o‘zbek xalqlari do‘stligini namoyish qilingani, siyosiy arboblarning faoliyati va o‘zbek ziyolilari Furqat, Muqimiy, Ahmad Donishlarning olib borgan ishlari ham targ‘ib qilingani, ommaviy kutubxona, rasadxona va kasalxonalarining qurilishlari, II-jahon urush yillaridagi o‘zbek xalqining frontdagi qo‘shgan hissasi, 1966-yil 26-aprel kuni yuz bergan zilzila oqibatlarini bartaraf etishda ko‘rsatilgan g‘amho‘rliklar asosiy mazmun kasb etgan. Muzeyning «Biz yagona oilamiz» mavzusidagi ko‘rgazmasiga 17500 tadan ortiq tomoshabin tashrif buyurgani diqqatga sazovordir.²³

1982-yil 10-avgustda qabul qilingan KPSS MQ ning «Muzeylarda g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yaxshilash haqida»gi qaroriga muvofiq Samarqand muzeyida «Sovet O‘zbekistoni madaniyati tarixi» ko‘rgazmasi, barcha viloyat o‘lkashunoslik muzeylarida «Islom dinining sinfiy mohiyati», «Zulmatdan yorug‘likka» kabi ko‘rgazmalari tashkil etilgan edi²⁴. 1980-1983-yillarda asosan «SSSR bizning vatanimiz», «Bitta oilada» kabi g‘oyalar asosida badiiy asarlar sotib olish uchun madaniyat vazirligidan 787 ming rubl ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin²⁵.

1986-yilda ham O‘zbekiston SSR Davlat muzeyida Ermitaj fondi asarlaridan tashkil topgan ko‘rgazma tashkil etilgan²⁶. Shu yili Polsha xalq Respublikasida O‘zbekiston SSR madaniyat vazirligining Ko‘rgazmalar direksiyasi, O‘zbekiston SSR davlat san’at muzeyi, Badiiy fondi kolleksiyalaridan tashkil topgan 400 ga yaqin asarlar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tgan. Ko‘rgazma O‘zbeklarning xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalari do‘stligi jamiyati tomonidan tashkil qilingan²⁷. Bu yillarda jamiyatning ishlarida faollik ko‘zga tashlangan ular muzeylar bilan hamkorlikda bir necha davlatlarda muntazam ravishda ko‘rgazmalar tashkil qilgan²⁸.

1991-yilda kelib yurtimizda «O‘zbekiston-Fransiya», «O‘zbekiston –Italiya», «O‘zbekiston- AQSh», «O‘zbekiston-Yaponiya» kabi do‘stlik jamiyatlari tuzilgan²⁹. O‘zbekistonning Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy- ma’rifiy aloqalar Kengashi tashkil etilgan hamda 1992-yil 26-iyunda respublika «Xalqaro madaniy-

²¹ Беш қардош республика рассомлари асарларининг виставкаси. Совет Ўзбекистони, 1964. 3 апрель

²² Панжоб маданияти ва турмушига оид буюмлар виставкаси. // Совет Ўзбекистони, 1964. 31 январь.

²³Транис И. Л. Музеи-активные помощники партии в идейно-политическом воспитании масс.// Опыт идеологической работы музея по коммунистическому воспитанию трудящихся.Т.: «Фан». 1987.3-9-б.

²⁴ O‘MA, 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 5970 yig‘ma jild, 229-230 varaqlar.

²⁵ O‘MA, 2487-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 5962 yig‘ma jild, 45 bet.

²⁶ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1986-yil. 30-aprel. No:18(2062) 3-varaq.

²⁷ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1986-yil. 8-avgust. No:32(2876) 4-varaq.

²⁸ O‘MA. R-2661-fond, 1-ro‘yxat, 316-ish, 1-25-varaqlar

²⁹ O‘MA, 2-fond, 3-ro‘yxat, 1-ish, 3-10-varaqlar

ma'rifiy aloqalar milliy Assotsatsiyasi» tashkil topgan edi³⁰. Buning natijasida 1992-yilda Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Italiya, Fransiya, AQSh, Slovakiya, Eron, Hindiston, Turkiya, Pokiston davlatlari bilan madaniy aloqalar o'rnatishga ulgur³¹ edi.

1989-yildayoq Madaniyat vazirligi qoshida millatlararo milliy madaniy markazlar tashkil etila boshlangan edi. Dastlab bu markazlar tarkibida 12 ta, jumladan, qozoq, koreys, arman, ozarbayjon, tojik milliy madaniy markazlari faoliyat ko'rsata boshladi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi qarori bilan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etildi. Bu markaz milliy madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib keldi³². Vaqt o'tgan sayin bu markazlarning soni ortib bordi. 1995-yilga kelib ularning soni 80 tadan oshadi, 2000-yilga kelib viloyatlar bilan hisoblaganda ularning soni 138 tani tashkil etgan. Milliy madaniy markazlar sonining oshib borishi ular faoliyatini muvofiqlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

1991-yildan milliy ma'naviy mafkuraviy jarayondagi o'zgarishlar sabab muzey ekspozitsiyalari ham tubdan o'zgardi. Muzeylardagi sovet tizimidagi ateistik ruh yo'qoldi umuminsoniy qadriyatlar qayta tiklangani O'zbekiston muzeylarining ekspozitsiyalarida namoyon bo'ldi. Jumladan, har bir muzeyning ekspozitsiyalari bosqichma-bosqich yangilangani hamda ularda milliy totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalari mujassam etilgani bayon qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**O'zbekiston muzeylarida millatlar etnografiyasiga oid kolleksiyalarni jamlash va turkumlash**» deb nomlangan bo'lib, unda muzeylarda dunyo xalqlarining etnografiyasiga oid kolleksiyalarining shakllanishi va maishiy etnik buyumlar assimilyatsiyasining muzeylar ekspozitsiyasida yoritilishi tahlil qilingan.

O'zbekiston muzeylarida dunyo xalqlarining etnografiyasiga oid kolleksiyalari fondining shakllanishida O'zbekiston Davlat san'at muzeyi alohida o'rin tutadi. Muzeyda fondidagi jami badiiy asarlar soni 1928-yilda 2.230 tani tashkil etgan. Ular Rus va G'arbiy Yevropa rangtasviriga oid 603 ta, Rus va G'arbiy Yevropa badiiy chinnilari bo'limida 827 ta buyum, Sharq bo'limida 85 ta, bronza va badiiy mebellar bo'limida 150 ta, amaliy san'at bo'limida 126 ta, gravyura va litografiya bo'limida 292 ta, Rus va G'arbiy Yevropa haykaltaroshlik buyumlari bo'limida 147 ta marmar bronza va yog'ochdan ishlangan san'at asarlarini jamlagan³³. 1949-yilda Xitoy san'atining doimiy ekspozitsiyasi, keyinroq Yapon san'atining ekspozitsiyalari tashkil qilingan, 1956-yilda esa muzey hozirgi Hind san'atining 500 ga yaqin eksponatlarini sotib olgan³⁴. 1965-yilda Sharq bo'limiga oid kolleksiyalarning shakllanishi bilan bog'liq muzey zahirasi Xorijiy sharq san'ati asarlari kolleksiyalari bilan to'ldirila boshlagan. Demak, Xorijiy sharq mamlakatlari sharq san'atiga oid eksponatlar 1940-1960-yillarda kolleksiyalarga ajratilib shakllangani ko'rishimiz mumkin.

1957-yilda SSR madaniyat vazirligi tomonidan muzeyga 550 dona hind

³⁰ O'MA, 152-fond, 1- ro'yxat, 1, 9, 14, 18, 216-ish, 6-450-varaqlar

³¹ O'MA, 125-fond, 1- ro'yxat, 3-15-varaqlar.

³² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to'g'risida»gi qarori, 13.01.1992 yildagi 10-son. <https://lex.uz/docs/-244685#-476289>

³³ Миронов А.М. Художественный музей в Ташкенте.-Т.: Музей УзССР, 1929.-С.4.

³⁴ Ўзбекистон санъат музейи/йўлкўрсатгич. -Т.: Ўзбекистон, 1965. -Б.6

san'atiga oid³⁵, Navoiy nomidagi opera va balet teatri arxivida saqlanayotgan Birmaning yog'och o'yakorligi yordamida bezatilgan mebellarini, 1960-yilda esa muzey Koreya Xalq Demokratik Respublikasi elchixonasi tomonidan zamonaviy koreys san'atiga oid 92 ta buyumlarni o'z saqloviga olgan³⁶. Rossiya va G'arbiy Yevropa san'ati bo'limi muzey tashkil qilingandan boshlab shakllangan bo'lib bugungi kunda 2661 dona san'at asarlarini jamlagan.

O'zbekiston davlat san'at muzeyining Xorijiy sharq mamlakatlari san'ati bo'limida 4766 ta ashyo mavjud bo'lib, ulardan 621 tasi muzey doimiy ekspozitsiya zallarida namoyish qilinmoqda³⁷.

Bundan tashqari O'zbekiston xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklari jamlangan mamlakatdagi yirik maskan bu O'zbekiston tarixi davlat muzeyidir³⁸. Muzeyda nafaqat O'zbekiston, balki qo'shni mamlakatlar xalqlari turmush tarzining turli tomonlarini yorituvchi 18 ming ta ashyolarni qamrab olgan 113 ta kolleksiyadan iborat yirik etnografiya fondi jamlangan³⁹.

1950-yillarda O'zbekistonning qardosh respublikalar va chet davlatlar bilan aloqasini ko'rsatuvchi ko'pgina ko'pgina materiallar to'plandi, bular ichida qardosh respublikalarning O'zbekiston xotin-qizlari birinchi va ikkinchi syezdiga, O'zbekiston ziyolilari syezdiga yuborgan va ularning vakillari taqdim qilgan sovg'alar bo'lgan. To'plangan eksponatlar ichida Germaniya Demokratik Respublikasi, Bolgariya, Chexoslovakiya, Hindiston, Pokiston, Indoneziya va boshqa ko'pgina mamlakatlarning sovg'alari: bayroqchalar, turli bezaklar, vazalar, kartinalar, kitoblar, albom va boshqa narsalardan iborat bo'lgan⁴⁰.

1990-yillarda muzeyga Antikvariat va zargarlik san'ati muzeyi hamda Xalqlar do'stligi muzeyi fondlari topshirilgan⁴¹.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi etnografiya fondining №1-sonli kolleksiyasi «Qoraqalpoq liboslari va uy-ro'zg'or buyumlari» deb nomlanadi⁴². Muzey etnografiya fondining 4-5-6-sonli kolleksiyalari yahudiylarning buyumlarini o'z ichiga oladi. 4-sonli to'plami «Mahalliy yahudiylarning kiyimlari va uy-ro'zg'or buyumlari» deb nomlanib jami 58 ta buyumdan tashkil topgan⁴³.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyida XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid

³⁵ Ўзбекистон санъат музейи/йўлкўрсатгич. –Т.: Ўзбекистон, 1965. –Б.6

³⁶ Круковская С.М. В мире сокровищ. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1982. – С.26.

³⁷ Fayziyeva V.S. O'zbekiston davlat san'at muzeyi: tarixi, rivoji va istiqboli (XX-XXI- asrlar). (Phd) disser. –Toshkent, 2021.-94-95 b.

³⁸ Исмаилова Ж.Х. Сокровищница памятников культуры Узбекистана. – Ташкент: «Sanat» jumali nashriyoti, 2018

³⁹ Абдухоликов Ф.Ф, Ртвеладзе Э.В, Арипджанов О.Ю, Минасянц В.С, Мусакаева А.А. «Ўзбекистон маданий мероси» муаллифлик туркуми: ««Ўзбекистон тарихи давлат музейи. Биринчи қисм. Археология ва нумизматика» китоб-альбоми // Тошкент: «East Star Media» МЧЖ, «Darakchi inform servis» МЧЖ буюртмасига кўра, 2020. – 404 б

⁴⁰ Содиқова Н.С., Буряков Ю.Ф. Тарихий ёдгорликлари хазинаси. – Т.: Фан. 1963. – 70 б

⁴¹ Ф.Ф. Абдухоликов, Э.В. Ртвеладзе, О.Ю. Арипджанов, В.С. Минасянц, А.А. Мусакаева «Ўзбекистон маданий мероси» муаллифлик туркуми: ««Ўзбекистон тарихи давлат музейи. Биринчи қисм. Археология ва нумизматика» китоб-альбоми // Тошкент: «East Star Media» МЧЖ, «Darakchi inform servis» МЧЖ буюртмасига кўра, 2020. – 404 б

⁴² O'zbekiston tarixi davlat muzeyi joriy arxivi «Etnografiya» fondining №1-sonli «Qoraqalpoq liboslari va uy-ro'zg'or buyumlari» kolleksiyasi ro'yxati papkasi.

⁴³ O'zbekiston tarixi davlat muzeyi joriy arxivi «Etnografiya» fondining №4-sonli «Mahalliy yahudiylarning kiyimlari va uy-ro'zg'or buyumlari» kolleksiyasi ro'yxati papkasi.

dungan madaniyati va turmush tarziga oid uch yuzdan ortiq o'ziga xos ashyolar to'plami mavjud. Ularning aksariyati muzey ilmiy xodimlari, shu jumladan mashhur etnograf Turdi Mirg'iyazov tomonidan 1927–1928-yillarda Qozog'istonning Sho'rtepa qishlog'i va Qirg'izistonning To'qmoq, Pishpek shaharlari hamda Qora qo'nguz qishlog'idan to'plangan⁴⁴. Muzeydagi dunganlar to'plami 339 ta eksponatdan iborat⁴⁵.

